



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SIRDARYO VILOYATIDAGI MILLIY MADANIY MARKAZLAR — MILLATLARARO TOTUVLIK VA MADANIY MEROS KO‘ZGUSI

Qormishov Mirjalol Jumamurod o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlarning tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari hamda bugungi kundagi faoliyati keng yoritiladi. Unda ushbu markazlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, ayniqsa, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlashdagi beqiyos ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy madaniy markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, festivallar, uchrashuvlar va ijodiy loyihalar qilinayotgani hammamizga ma‘lum. Undan tashqari, kelajak avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni ajdodlar merosiga sodiq bo‘lishga undash, shu bilan birga zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘un holda rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Bundan tashqari, milliy madaniy markazlarning hududdagi turli millat vakillari o‘rtasida do‘stlik rishtalarini mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni ta‘minlash hamda yagona fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: An‘analari, bag‘rikenglik, do‘stlik va hamjihatlik, fuqarolik jamiyati, madaniyatlararo muloqot, madaniy meros, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, millatlararo totuvlik, milliy madaniy markazlar, milliy qadriyatlar, Sirdaryo viloyati, urf-odatlar, yoshlar tarbiyasi.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕНТРЫ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ — ЗЕРКАЛО МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЙ ГАРМОНИИ И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Кормишов Миржалол Жумамурод угли
Гулистанский государственный педагогический институт, магистрант

Аннотация

В данной статье широко освещаются становление, этапы развития и сегодняшняя деятельность национальных культурных центров Сырдарьинской области. В нем анализируется роль этих центров в жизни общества, особенно их неоценимое значение для укрепления атмосферы межнационального согласия, толерантности и взаимоуважения. Все мы также знаем, что национальные культурные центры проводят культурно-просветительские мероприятия, фестивали, встречи и творческие проекты. Кроме того, особое внимание будет уделено вопросам воспитания будущих поколений в духе уважения к национальным ценностям, поощрения их к верности наследию предков, а также развития в гармонии с современным мировоззрением. Кроме того, будет проведен глубокий анализ роли национальных культурных центров в укреплении связей дружбы между представителями разных национальностей на территории, обеспечении социальной сплоченности и формировании единого гражданского общества.

Ключевые слова: традиции, толерантность, дружба и сплоченность, гражданское общество, межкультурный диалог, культурное наследие, культурно-просветительские мероприятия, межнациональная гармония, национальные культурные центры, национальные ценности, Сырдарьинская область, традиции, воспитание молодежи.

NATIONAL CULTURAL CENTERS IN SYRDARYA REGION — MIRROR OF INTERETHNIC HARMONY AND CULTURAL HERITAGE

Qormishov Mirjalol Jumamurod o‘g‘li
Gulistan State Pedagogical Institute, Master’s Student

Abstract

This article provides a comprehensive overview of the establishment, development stages, and current activities of the national cultural centers in the Syrdarya region. It analyzes the role of these centers in society, highlighting their invaluable contribution to fostering an atmosphere of interethnic harmony, tolerance, and mutual respect. We also know that national cultural centers organize cultural and educational events, festivals, meetings, and creative projects. In addition, special attention will be paid to educating future generations in the spirit of respect for national values, encouraging them to be loyal to their ancestral heritage, and developing them in harmony with the modern worldview. Furthermore, a thorough analysis

will be conducted on the role of national cultural centers in strengthening the bonds of friendship between people of different nationalities in the territory, ensuring social cohesion, and fostering a unified civil society.

Keywords: traditions, tolerance, friendship and solidarity, civil society, intercultural dialogue, cultural heritage, cultural and educational events, interethnic harmony, national cultural centers, national values, Syrdarya Region, Customs, youth education.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish masalalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ko'p millatli jamiyatlarda turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik va totuvlik muhitini mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy madaniy markazlar jamiyatda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrash va targ'ib etishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi bu yolg'iz o'zbeklar uchun emas, balki shu diyorda istiqomat qiluvchi yuzdan ortiq millat va elat vakillari uchun ham ulkan ahamiyatga molik tarixiy voqeadir. Ularga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'zda tutilgan hamma huquq va erkinliklar kafolatlanadi va ta'minlab beriladi. O'zbek xalqi azaldan do'stlikni qadrlab, ardoqlab kelgan, tinchlik va totuvlikda yashashni xohlagan hamma xalqlarga hurmat bilan qarab kelgan [5; 92-b.].

Undan tashqari, Sirdaryo viloyati ham o'zining ko'p millatli tarkibi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar turli millat vakillarining urf-odatlarini, an'analari va madaniy merosini saqlash hamda rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ular orqali nafaqat madaniy boylar asrab qolinmoqda, balki jamiyatda do'stlik va hamjihatlik muhitini qaror toptirishga ham erishilmoqda. Bu borada O'zbekistonda ularning milliy-madaniy merosini va tilini saqlash, rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xuddi shu nuqtai nazardan qaraganda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlari benihoya chuqur mazmunga egadir: "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin, insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi" [6; 147-b.].

O'zbekiston Respublikasida turli millat vakillari yashashini hisobga olib, 1989-yildayoq O'zbekiston Madaniyat ishlari vazirligining huzurida Millatlararo madaniyat markazi tashkil qilingan edi [1; 116-b.]. Ushbu markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi 10-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo madaniyat markazi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatida 1992-yildan boshlab rus, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, tojik va koreys milliy madaniy markazlari tashkil etilib, hozirgacha faoliyat olib bormoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlarning faoliyatini o'rganish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mazkur mavzuni yoritishda milliy madaniy markazlar faoliyati, millatlararo totuvlik va madaniy merosni asrash masalalariga doir bir qator ilmiy, huquqiy va rasmiy manbalar o'rganildi. Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan ochiqlik, oshkorlik va inson qadrini ulug'lashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar mamlakatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda respublikada 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati faoliyat yuritayotgani, "O'zbekiston – umumiy uyimiz" degan ezgu g'oya barcha milliy madaniy markazlarning shioriga aylangani diqqatga sazovor. Bu jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhiti, tinchlik va osoyishtalikning amaliy ifodasidir [8].

Mustaqillik yillarida nashr qilingan asarlarning bir guruhi madaniyat va baynalmilal munosabatlar, O'zbekistondagi millat va elatlarning milliy va madaniy markazlari faoliyati bilan bog'liq. Ularda sovet va mustaqillik davri madaniyati o'rganilib, qiyosiy tahlil qilingan [2]. Ayniqsa, R.H. Murtazayevaning "O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik" nomli o'quv qo'llanmasi alohida e'tiborga molik. Asarda milliy va baynalmilal munosabatlarning rivojlanish nazariyasi, millatlararo aloqalar, milliy jarayonlarga katta e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, madaniyat, undagi milliylik hamda baynalmilallik masalalari alohida tadqiq etilmagan [3].

Shuningdek, madaniy merosni saqlash, rivojlantirish va targ'ib qilish davlat siyosatining muhim

yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, milliy madaniy markazlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirishga xizmat qiladi. Undan tashqari, Prezident farmonlari va maʼruzalari, xususan, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, bagʻrikenglikni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir qarashlar ham mavzuning nazariy asosini boyitadi. Ushbu hujjatlarda Oʻzbekistonda yashovchi turli millatlar oʻrtasidagi doʻstlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligi taʼkidlanadi.

Shu bilan birga, madaniyatshunoslik va sotsiologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlarda milliy madaniy markazlarning jamiyat hayotidagi oʻrni keng tahlil qilingan. Tadqiqotchilar ushbu markazlarni madaniyatlararo muloqotni taʼminlovchi, milliy qadriyatlarni saqlovchi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim institut sifatida baholaydilar.

Umuman olganda, milliy madaniy markazlar nafaqat madaniy faoliyat bilan shugʻullanuvchi tashkilot, balki jamiyatda tinchlik, totuvlik va hamjihatlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy tuzilma hisoblanadi.

NATIJALAR. Mavzu doirasida olib borilgan tahlil va oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar jamiyatda millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Ushbu markazlar faoliyati natijasida turli millat vakillari oʻrtasida oʻzaro hurmat, ishonch va doʻstona munosabatlar mustahkamlanib bormoqda.

Oʻzbekiston Qozoq Milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati boʻlinmasi faoliyati. Oʻzbekiston hududida yashovchi turli millat va elatlar oʻrtasida doʻstlik, hamjihatlik va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar orasida Oʻzbekiston Qozoq Milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati boʻlinmasi alohida oʻrin tutadi.

Mazkur markaz 1992-yil 2-iyul kuni 2-son bilan roʻyxatga olinib tashkil etilgan boʻlib, u qozoq millatiga mansub aholi oʻrtasida milliy anʼanalari, urf-odatlar, til va madaniy merosni saqlash hamda rivojlantirish yoʻlida faoliyat olib bormoqda. Markaz oʻz faoliyati davomida millatlararo totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda madaniy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etishga alohida eʼtibor qaratib kelmoqda.

Markaz 2016-yil 26-dekabr kuni qayta roʻyxatdan oʻtkazilib, 140-sonli guvohnoma asosida faoliyatini davom ettirmoqda. Tashkilotning yuridik manzili Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Taraqqiyot koʻchasi, 20-uyda joylashgan boʻlib, faoliyat yuritayotgan manzili ham aynan shu hududda hisoblanadi [7].

Oʻzbekiston Koreys Milliy madaniy markazi assotsiatsiyasining Sirdaryo viloyat boʻlinmasi ham oʻzining samarali faoliyati bilan ajralib turadi. Mazkur markaz Sirdaryo viloyati hududida istiqomat qiluvchi koreys millatiga mansub fuqarolarning milliy qadriyatlarini saqlash, madaniyatini rivojlantirish va yosh avlodga milliy anʼanalarni yetkazish maqsadida tashkil etilgan. Boʻlinma 2017-yil 12-oktabrda tashkil etilgan boʻlib, 2020-yil 18-iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 448-son bilan qayta roʻyxatdan oʻtkazilgan.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida koreys millatiga mansub taxminan 11 ming aholi istiqomat qilmoqda. Bu esa markaz faoliyatining ijtimoiy va madaniy ahamiyatini yanada oshiradi. Markaz ushbu aholining milliy oʻzligini saqlash, tili, urf-odatlari va madaniy merosini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli tadbirlarni tashkil etib kelmoqda.

Markazning asosiy maqsad va vazifalaridan biri Oʻzbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi turli xalqlar va elatlar vakillari oʻrtasida fuqarolik birdamligi, totuvlik va doʻstlikni mustahkamlashga koʻmaklashishdan iboratdir. Shu bilan birga, markaz millatlararo hamjihatlikni rivojlantirish, madaniy almashinuvni qoʻllab-quvvatlash va jamiyatda oʻzaro hurmat muhitini mustahkamlash yoʻlida faol ishtirok etadi.

Oʻzbekiston Koreys Milliy madaniy markazi assotsiatsiyasi Sirdaryo viloyat boʻlinmasi bugungi kunda nafaqat koreys millatiga mansub aholining manfaatlarini ifodalovchi maskan, balki turli millatlar oʻrtasida doʻstlik va birdamlikni mustahkamlovchi muhim madaniy-maʼrifiy markaz sifatida faoliyat olib bormoqda [7].

Qirgʻiz milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati boʻlinmasi faoliyati. Oʻzbekistonda turli millat va elatlarning milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, ularning madaniy merosini rivojlantirish hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash maqsadida milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Shunday markazlardan biri Qirgʻiz milliy madaniy markazining Sirdaryo viloyati boʻlinmasidir.

Mazkur markaz 1993-yil 23-mart kuni Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasida roʻyxatdan oʻtgan boʻlib, viloyatda istiqomat qiluvchi qirgʻiz millatiga mansub aholining milliy madaniyatini rivojlantirish,

urf-odat va an'analarini asrab-avaylash yo'lida faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida qirg'iz millatiga mansub 19 757 nafar aholi istiqomat qilmoqda. Bu esa markazning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini yanada oshiradi.

Markaz qirg'iz xalqining boy madaniy merosini saqlash, yosh avlodga milliy qadriyatlarni yetkazish hamda millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Markazning asosiy maqsad va vazifalari madaniy hamkorlikni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash, milliy an'ana, axloqiy va ma'naviy boyliklarni saqlab qolishga sharoit yaratishdan iboratdir. Shu bilan birga, markaz turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Markaz rahbari sifatida Djanibekova Nodira Abdusalomovna faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, markaz faoliyatini rivojlantirishda o'rinbosar Usmonov Soatning ham hissasi mavjud. Bugungi kunda Qirg'iz milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati bo'linmasi milliy qadriyatlarni asrash, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish hamda xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birdamlikni mustahkamlash yo'lida faoliyat olib borayotgan muhim maskanlardan biri hisoblanadi [7].

Tojik milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyati bo'limi. O'zbekiston Respublikasida turli millat va elat vakillarining tinch-totuv yashashi, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda faoliyat yuritayotgan Tojik milliy madaniy markazining Sirdaryo viloyati bo'limi ham hududdagi tojik millatiga mansub aholi manfaatlarini himoya qilish, ularning milliy qadriyatlarini asrab-avaylash hamda madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu markaz 2014-yil sentabr oyida tashkil etilgan. Markaz 2023-yil 17-maydagi 340-son qaror asosida qayta ro'yxatdan o'tkazilgan. Markaz viloyatda istiqomat qilayotgan tojik millatiga mansub fuqarolarni birlashtirib, ularning madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashmoqda. Sirdaryo viloyatida istiqomat qilayotgan tojik millatiga mansub aholi soni 86 052 nafarni tashkil etadi. Bu esa viloyatda millatlararo hamjihatlik va madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda markaz faoliyatining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Markazning asosiy maqsadi — O'zbekistonda yashovchi turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik, totuvlik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlashdan iborat. Shuningdek, markaz:

- millatlararo munosabatlarni rivojlantirish;
- milliy madaniyat va an'analarni asrab-avaylash;
- fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish;
- demokratik islohotlarni qo'llab-quvvatlash;
- tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Markazga Pardayev Munavvar Mukarramovich rahbarlik qiladi. Rais o'rinbosari lavozimida esa Pardayeva Xurshida Abdumajitovna faoliyat yuritmoqda. Rahbariyat tomonidan milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, yoshlarni ma'naviy tarbiyalash va madaniy tadbirlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda [7].

Rus milliy madaniy markazi. O'zbekistonda turli millat va elat vakillarining tinch-totuv yashashi hamda millatlararo do'stlikni mustahkamlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlar orasida O'zbekiston Rus milliy madaniy markazi Sirdaryo viloyat bo'linmasi alohida o'rin tutadi. Mazkur markaz 2017-yil 25-yanvarda 142-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. Markaz viloyatda istiqomat qiluvchi rus, ukrain, belorus va boshqa slavyan millatlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatini rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlari, urf-odatlar va tarixini asrab-avaylash maqsadida tashkil etilgan.

Bugungi kunda hududda ushbu millatlarga mansub 22 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Markaz ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish, yosh avlodni milliy an'analarda ruhida tarbiyalash hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash yo'lida samarali ish olib bormoqda. Markazning asosiy vazifalaridan biri — rus, ukrain, belorus va boshqa slavyan xalqlarining madaniy merosini saqlash va rivojlantirishdir. Shu bilan birga, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi madaniy tadbirlar, uchrashuvlar, bayram kechalari va ma'rifiy loyihalar tashkil etib kelinmoqda.

Markazga Golubtsova Faina Semyonovna rahbarlik qilib kelmoqda. Uning boshchiligida markaz tomonidan millatlararo do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hududlarda faoliyatni yanada samarali tashkil etish maqsadida markaz tarkibida Sirdaryo tuman bo'limi, Guliston tuman bo'limi hamda Yangiyer shahar bo'limlari faoliyat yuritmoqda.

Ushbu bo‘limlar orqali joylarda madaniy tadbirlar o‘tkazilib, aholining ijtimoiy-madaniy hayotdagi faolligi oshirilmoqda [7].

Ozərbayjon milliy madaniy markazi 2003-yil 13-oktabr kuni № 559-son bilan tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ozarbayjon millatiga mansub aholi manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda millatlararo do‘stlikni mustahkamlash maqsadida faoliyat yuritadi. Markaz O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi tarixiy, madaniy va ma‘naviy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, hududda istiqomat qiluvchi ozarbayjon millatiga mansub aholi soni 2 857 nafarni tashkil etadi. Markaz ushbu aholi vakillarining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, tili va madaniyatini asrab-avaylash hamda yosh avlodga yetkazishga alohida e‘tibor qaratadi.

Markazning asosiy vazifalaridan biri O‘zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari o‘rtasida do‘stlik, hamjihatlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashdir. Shu bilan birga, ozarbayjon xalqining boy madaniy merosi, an‘analari va ma‘naviy qadriyatlarini targ‘ib qilish maqsadida madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etib boriladi. Markazga Bayramov Azizo‘g‘a Arastunovich rahbarlik qiladi. Rais o‘rinbosari lavozimida Magarramov Ali Otaxonovich faoliyat yuritadi. Ularning tashabbusi bilan milliy madaniyatni rivojlantirish, yoshlarni ma‘naviy tarbiyalash va millatlararo hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda markaz O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta‘minlash, ozarbayjon xalqining milliy o‘zligini saqlab qolish hamda ikki xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish yo‘lida muhim o‘rin tutmoqda [7].

MUHOKAMA. Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu tuzilmalar nafaqat madaniy tadbirlar tashkil etuvchi maskan, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ularning faoliyati orqali turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunish, hurmat va hamkorlik muhiti shakllanib, bu holat hududdagi ijtimoiy birlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, milliy madaniy markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar ko‘pincha an‘anaviy madaniyatni saqlash bilan bir qatorda, uni zamonaviy jamiyat talablariga mos holda rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu esa madaniy merosning yo‘qolib ketishining oldini olib, uni yangi avlod ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, milliy madaniy markazlar tomonidan o‘tkazilayotgan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, bayramlar va uchrashuvlar nafaqat milliy an‘analarni saqlashga, balki ularni keng jamoatchilikka tanitishga ham xizmat qilmoqda. Bu esa hududda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va turli millatlarning o‘zaro integratsiyasini kuchaytirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Umuman olganda, Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar faoliyati jamiyatda tinchlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy merosni asrab-avaylash hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, madaniy merosni asrash hamda fuqarolik jamiyatini yanada barqaror rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng diniy qadriyatlarni tiklash va man etib kelingan diniy bayram hamda urf-odatlarini amalga oshirish uchun fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratildi. Davlatlarning dunyoviy taraqqiyoti, demokratik o‘zgarishlar va diniy bag‘rikenglik jarayoniga aqidaparastlik, diniy ekstremizm, diniy murossasizlik, siyosiy maqsadlarga erishishda konfessional asoslardan foydalanish kabi illatlar salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu harakat va oqimlarning nomlari hamda shiorlari turlicha bo‘lishiga qaramay, maqsadlari bir — dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek: „Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da‘vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz“. Azal-azaldan yurtimizning yirik shaharlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko‘rsatib kelgani, tariximizning og‘ir sinovli damlarida ham diniy asosda mojarolarning chiqmagani xalqimizning dinlararo bag‘rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanidan dalolat beradi [4; 87-b.].

XULOSA. Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar jamiyatning ma‘naviy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Ular turli millat va elat vakillarining urf-odatlarini, an‘analari va madaniy merosini asrab-avaylash bilan birga, ularni keng jamoatchilik orasida targ‘ib etishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon esa jamiyatda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlik muhitining mustahkamlanishiga zamin

yaratadi. Shuningdek, O'zbekiston Rus Milliy Madaniy Markazi Sirdaryo viloyat bo'linmasi millatlararo totuvlikni mustahkamlash, slavyan xalqlarining boy madaniy merosini asrab-avaylash hamda yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin egallab kelmoqda. Qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus va koreys markazlari tomonidan olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada yoshlar o'z milliy ildizlarini chuqur anglagan holda, boshqa millat madaniyatiga ham hurmat bilan qaraydigan barkamol shaxs sifatida shakllanmoqda.

Umuman olganda, Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash nafaqat madaniy merosni saqlash, balki jamiyatda tinchlik, do'stlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri). 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 116.
2. Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati. – Toshkent: Mehnat, 1995; O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. – Toshkent: Universitet, 1996
3. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. – Toshkent: Universitet, 2007.
4. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar tarixidan. – Toshkent: Universitet, 1998. – B. 87.
5. O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. – Toshkent: Universitet, 1996. – B. 92.
6. O'zbekiston – bag'rikeng diyor / Mas'ul muharrir A. Ochildiyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 147.
7. O'zbekiston Respublikasi Nodavlat Notijorat Tashkilotlari Milliy Assotsiatsiyasi Sirdaryo viloyati Milliy madaniy markazi materiali.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi. 29.07.2024-yil.